




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 3-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**JAHON TILSHUNOSLIGIDA ESKIRGAN SO‘ZLAR TADQIQI
RESEARCH OF OBSOLETE WORDS IN WORLD LINGUISTICS****Xudayberganova Dildora,**

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

Kasimova Ziyoda,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida leksik qatlamning muhim qismi bo‘lgan eskirgan so‘zlarning o‘rganilish tarixi va zamonaviy tadqiqot usullari tahlil qilinadi. Ishda arxaizm va istorizmlarning differensial belgilari, ularning tilda saqlanib qolish darajasi hamda badiiy diskursdagi lisoniy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, turli tillar misolida leksik eskirish jarayoniga ta’sir etuvchi ekstralingvistik omillar qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari tilning tarixiy leksikologiyasi va etimologik lug‘atchilikni rivojlantirishda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: jahon tilshunosligi, leksikologiya, eskirgan so‘zlar, arxaizm, istorizm, lisoniy dinamika, badiiy uslub, passiv lug‘at fondi, etimologiya.

Abstract. This article analyzes the history of studying obsolete words, which are a crucial part of the lexical layer in world linguistics, and examines modern research methodologies. The paper highlights the differential features of archaisms and historisms, their degree of preservation in language, and their linguistic functions in literary discourse. Furthermore, extralinguistic factors influencing the process of lexical obsolescence are studied through a comparative analysis of various languages. The findings of the research serve as a theoretical resource for historical lexicology and the development of etymological lexicography.

Keywords: world linguistics, lexicology, obsolete words, archaisms, historisms, linguistic dynamics, literary style, passive vocabulary, etymology.

Ingliz tilshunosligida eskirgan so‘zlarni o‘rganish masalasi asosan tarixiy leksikologiya, etimologiya, korpus lingvistik, stilistik va leksikografik tadqiqotlar doirasida olib boriladi. Ingliz tili qadimiy tarixga ega bo‘lib, unda Old English (qadimgi ingliz), Middle English (o‘rta ingliz) va Early Modern English (erta yangi ingliz) davrlariga xos ko‘plab arxaik so‘zlar saqlanib qolgan. Tarixiy-etimologik yondashuv eng muhim metod hisoblanadi. Masalan, *Oxford English Dictionary* (OED) lug‘atida har bir so‘zning qadimgi shakli, dastlabki qo‘llanmalari va keyinchalik eskirib borishi aniq ko‘rsatilgan. Masalan, bugungi kunda ishlatilmaydigan *yclept* (“atalgan, nomlangan”) shakli o‘rta ingliz davrida keng qo‘llangan. Shuningdek, W.Skeatning *An Etymological Dictionary of the English Language* (1882) asari ko‘plab arxaizmlarning kelib chiqishi va tarixiy ildizlarini yoritadi.

Ingliz tilshunosligida arxaik leksikani tadqiq qilish turli yo‘nalishlarda olib boriladi: etimologik tahlil, korpus asosida statistik kuzatish, badiiy uslubiy tahlil, semantik o‘zgarishlarni o‘rganish va lug‘atchilik. Bu yondashuvlar birgalikda ingliz tilining tarixiy qatlamini chuqurroq anglashga, uning adabiy va madaniy rolini yoritishga yordam beradi. O‘zbek adabiyotida ham bu holat kuzatiladi.

Masalan, Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" yoki Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanlarida tarixiy davrga mos so'zlar qo'llanib, o'sha davr koloritini yaratadi. Demak, ikkala tilshunoslikda ham arxaizmlar badiiy-estetik vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida ayrim so'zlar butunlay yo'qolmagan, balki ularning ma'nosi o'zgargan. Masalan: *silly* dastlab "bechora, beg'ubor" degan ma'noda bo'lgan, hozir esa "ahmoqona"; *meat* dastlab "umuman oziq-ovqat" ma'nosida, hozir esa faqat "go'sht".

O'zbek tilida ham shunday holatlar bor. Masalan, *ziyod* so'zi ilgari "ko'p, ortiq" ma'nosida keng ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda faqat she'riy-uslubiy konnotatsiyada uchraydi. Eskirgan so'zlarni o'rganishda lug'at tuzish an'analari katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida Johnsonning *A Dictionary of the English Language* (1755) ilk marotaba keng qamrovli lug'at sifatida ham zamonaviy, ham arxaik so'zlarni qayd etdi. Keyinchalik Shakespeare va o'rta asr ingliz tili uchun maxsus lug'atlar yaratildi. O'zbek tilida maxsus "eskirgan so'zlar lug'ati" kam bo'lsa-da, Rahmatullayevning *Etimologik lug'ati*, Navoiy, Bobur asarlarining izohli nashrlari arxaizmlarni o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz va o'zbek tilshunosligida eskirgan so'zlarni tadqiq etishning o'xshash jihatlari mavjud:

- **etimologik tahlil** orqali tarixiy qatlamlar o'rganiladi;
- **korpus lingvistikasi** asosida so'zlarning chastotasi va davriy o'zgarishlari kuzatiladi;
- **stilistik tahlil** badiiy adabiyotdagi uslubiy vazifani ochadi;
- **leksikografik tadqiqotlar** esa arxaizmlarni lug'atlarda qayd etadi.

Ingliz tilshunosligida tarixiy lug'at va korpuslar ancha keng va tizimli, o'zbek tilshunosligida esa asosiy e'tibor klassik matnlarning filologik sharhiga qaratilgan. Shunga qaramay, har ikkala yo'nalishda ham eskirgan so'zlar til tarixini, madaniy qadriyatlarini va badiiy-estetik an'analarni chuqur anglashda muhim manba hisoblanadi.

Bugungi dunyo tilshunosligini o'rganishda, rus tilshunosligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli arxaizmlar va eskirgan leksika haqida rus olimlarining qarashlarini o'rganish muhimdir. Rossiyada nashr etilgan "Lingvistik ensiklopedik lug'at"da istorizm, ya'ni eskirgan so'zlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Istorizm (tarixiy so'zlar) – yo'qolib ketgan realiyalarni bildiruvchi so'z yoki turg'un birikmalar (masalan: *кравчий, тягло, целовальник*).

Tabiatan murakkab hodisa bo'lgan matnning kompleks o'rganilishi, albatta, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Lekin e'tiborni birinchi navbatda, matnning mazmuniy mundarijaviy negizini tashkil qiladigan kategorial xususiyatlarga va ularni lisoniy voqealantiruvchi vositalarga qaratish lozim.

Tarixiy so'zlar qadim zamonlarga tegishli bo'lishi mumkin (*закуп, смерд*), shuningdek, unchalik qadimiy bo'lmasligi ham mumkin (*ликбез, нэпман, подразвёрстка*). Istorizmlar ko'p ma'noli so'zlarning bir necha ma'nosidan bittasi ham bo'lishi mumkin. Tarixiy so'zlar passiv lug'atga tegishli bo'lib, arxaizmlardan farqli o'laroq, aktiv lug'atda sinonimlarga ega bo'lmaydi. O'quv va

ilmiy adabiyotlarda terminologik ma'noda ishlatiladi, badiiy adabiyotda esa tarixiy kolorit yaratish maqsadida qo'llaniladi".

Rus olimlari L.I.Raxmanova va V.N.Suzdaltsevalar o'z asarlarida eskirgan leksikani shunday ta'riflaydi: "Eskirgan leksika – ma'lum bir tilda so'zlovchi kishilarning nutqlarida ishlatiladigan, ammo ular tomonidan eskirgan deb qabul qilinadigan so'zlar: *кавалергард, ланиты, онии, опричник, персты, сей, codeйствие* va h. So'zlarning eskirishi va faol nutqdan chiqib ketishi sabablari turlicha. So'zlar qo'llanish sohasidan chiqib ketishi mumkin, agar u ifodalayotgan shaxs, predmet yoki hodisa endi ishlatilmay qolsa (masalan: *кринолин, пицаль, царь, чиновник*"). Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilidagi arxaik leksikani rus tilshunosligining prinsiplariga muvofiq o'rganish ishimizni osonlashtiradi. Ko'pchilik so'zlar, qaysidir sabablarga ko'ra, ifodalayotgan shaxs, predmet yoki hodisaning yangi nomi paydo bo'lganda eskirib qoladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida *vazir, bosh vazir, ofitser* so'zlari avvalgi usmoniycha *vezir, sadrazam, paşa* so'zlarini nutqdan siqib chiqargan. Shu bilan birga, *paşa* so'zi og'zaki nutqda va ba'zan uslubiy maqsadlarda ishlatiladi, *vezir, podshoh, taxt* so'zlari esa xalq maqollarida saqlanib qolgan va bugungi kunga qadar o'z qimmatini yo'qotmagan:

Aql vazirdir, ko'ngil podshoh.

Kelin taxt keltiribdi, ustiga o'zi chiqib o'tirib olibdi.

Umumiy tilshunoslikda eskirgan so'zlarning ikki turi ajratiladi:

Istorizmlar (tarixiy so'zlar) – eskirgan narsalar, eskirib qolgan hodisalarni ifodalovchi so'zlar;

Arxaizmlar – hozirda ham mavjud, lekin boshqa (yangicha) nomga ega bo'lgan predmet yoki hodisalarni ifodalovchi eskirgan so'zlar.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida tarixiy so'zlar *tar.* (tarihi) deb, eskirgan so'zlar esa *esk.* (eskimiş) deb belgilab qo'yiladi. Arxaizmlar esa hozirgi tilda o'z sinonimlariga ega bo'lib, ular yordamida lug'atlarda izohlanadi: masalan, *tenavul etmek* – "edeb., esk. yemek".

Misollar:

Ahit – arab tilidan o'zlashgan bo'lib, hozirgi o'zbek tilida "ahd, ont, shartnoma" ma'nosida ishlatiladi. Qadimgi o'zbek tilida esa "davr, zamon" ma'nosiga ega bo'lgan.

Çavuş – Usmoniylar davrida davlat tashkilotida turli vazifalarni bajargan xizmatchi yoki armiyada yuqori mansabdagi shaxsning buyruqlarini yetkazuvchi odam bo'lgan. XX asrning 60-yillarida hozirgi o'zbek tilida shunday vazifadagi ofitser tushunchasi bilan nutqqa qaytib kirdi.

Zamonaviy tendensiyalar natijasida ba'zi istorizmga aylangan so'zlar yangi kontekstlarda qayta ishlatilmoqda. Masalan:

Losin – ilgari "badanga yopishib turadigan shim turi" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi moda olamida xotin-qizlar kiyimiga moslab ishlatiladi.

Meyhane – Usmoniylar davrida past tabaqali kishilar uchun mo'ljallangan, may ichadigan joy bo'lsa, bugungi kunda yoshlarning jargon tilida restoran yoki kafe ma'nosida qo'llaniladi.

Shu bilan birga, eski va eskirgan soʻzlar metaforik maʼnoda ham faol ishlatiladi, lugʻatlarda esk. belgisi bilan emas, intuitiv tarzda qabul qilinadi. Masalan, *ozan* soʻzi uzoq vaqt poetik sinonim sifatida ishlatilgan, XX asrning 60-yillarida esa keng qoʻllanila boshladi.

Soʻzlarning taqdiri ularning “yoshi” bilan emas, balki nutqda qanday ishlatilishi bilan belgilanadi. Hayotiy zarur tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar asrlar davomida faol qoʻllanadi va “eskirmaydi”. Aksincha, maʼlum bir davr voqeligiga xos boʻlgan atamalar tezda arxaizatsiyaga uchraydi, chunki ular anglatgan hodisa yoki predmet jamiyat hayotidan chiqib ketadi. Tadqiqotimiz davomida shunga guvoh boʻldikki, rus tilida hozirgi kunda ham koʻplab arxaizmlar qoʻllanadi va ular nutqqa obrazlilik, emotsional boʻyoq hamda tarixiy kolorit bagʻishlaydi. Shuning uchun eskirgan leksika masalasini tadqiq etish bugungi lingvistikada ham dolzarb hisoblanadi.

Funksional jihatdan arxaizmlar badiiy matnda stilizatsiya, ekspressivlik, tarixiylik vositasi boʻlib xizmat qiladi. Arxaik leksika masalasi tilshunoslik va leksikografiya uchun dolzarb boʻlib qolmoqda. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki: tadqiqot natijalari tarixiy leksikologiya, uslubshunoslik hamda leksikografiya sohalarida qoʻllanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Qodirov P. Avlodlar dovoni. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 640 b.
2. Rahmatullayev Sh. *Oʻzbek tilining etimologik lugʻati*. – Toshkent, 2000.
3. Skeat W.W. *An Etymological Dictionary of the English Language*. Oxford, 1882.
4. *The Oxford English Dictionary*. Oxford, 1989.
5. Türkçe Sözlük, TDK, Ankara, 1998. – S.47.
6. Yoqubov O. *Ulugʻbek hazinasi*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017. – 320 b.
7. Ибрагимов Ю. Ўзбек тилида матн яратишнинг айрим муаммолари ва ечими.//Замонавий тилшунослик ва адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: 2016. – Б.3.
8. **Лингвистический энциклопедический словарь**. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – 204 с.
9. **Рахманова Л.И., Суздальцева В.Н.** Современный русский язык. Лексика. Фразеология. Морфология. – Москва: Аспект-Пресс, 2011. – 464 с.

